

**Uzbekistan Airways parvozlar  
samaraligini oshirish maqsadida  
ishlab chiqarish faoliyatini  
raqamlashtirishni davom ettiradi**



**2023-yil 29-noyabr** – Uzbekistan Airways ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda parvozlarni boshqarish jarayonlarini optimallashtirishda davom etmoqda: kompaniya SITA Mission Watch tizimini joriy etish bo'yicha shartnoma imzoladi. Texnologik yechim aviakompaniya samaradorligini oshiradi va jarayonning yanada moslashuvchanligini ta'minlaydi, ob-havo bilan bog'liq hodisalarining oldini olishda har yili 600 000 AQSH dollaridan ortiq mablag'ni tejashga imkon beradi va yoqilg'i sarfini 300 tonnaga kamaytiradi.

SITA Mission Watch – bu parvozlarni boshqarish markazi va aviadispetcherlar tomonidan qo'llaniladigan parvozlarni kuzatishning yangi avlod texnologiyasi. Mahsulot talqin qilish va qaror qabul qilishni osonlashtirish uchun maxsus ob-havo hodisalari haqida qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lgan grafik jihatdan optimallashtirilgan holda parvoz yo'naliшlarini ham, tegishli hodisalarini ham tahlil qilish imkonini beradi.

SITA Mission Watch'ning eng yaxshi ob-havo tizimi turli manbalardan olingan prognozlardan foydalanadi. Bu aviakompaniyaga yo'naliшlarni aniqroq rejalashtirish, shuningdek, parvozlarni bekor qilish holatlarini boshqarish imkonini beradi. Integratsiyalashgan avtomatlashtirilgan texnologiya dispetcherlarga reyslarning xavfsiz hamda o'z vaqtida yetib borishini ta'minlash va noqulay ob-havo bilan bog'liq xarajatlarni oldini olish uchun o'zgaruvchan sharoitlarga tezda javob berishga imkon beradi.

Ob-havoga bog'liq xavflarning ortishi parvozlar kechikishining asosiy sababi bo'lib, har yili aviatsiya sanoatiga taxminan 1 milliard dollar zarar keltiradi. Kechikishlar esa yo'lovchilar mamnun bo'lishiga va aviakompaniya brendi obro'siga salbiy ta'sir qiladi. SITA Mission Watch'ning asosiy noyob qobiliyati – bu bir nechta ob-havo provayderlarining yagona birlikka integratsiyalashuvidir, bu esa parvoz holatini talqin qilishni soddalashtiradi. Bu aviakompaniyalarga qaror qabul qilishda moslashuvchanlikni saqlab qolish va tezlikni oshirish imkonini beradi.

Ob-havo haqida batafsil ma'lumotlar, masalan, favqulodda vaziyatlarda yoqilg'idan samaraliroq foydalanishga yordam beradi. Bu kabi tejamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, 20 ta havo kemasiga ega aviakompaniya SITA Mission Watch yordamida yiliga 150 tonnaga yaqin yoqilg'i tejashi mumkin.

*Shuhrat Xudayqulov, "Uzbekistan Airways" AJ Boshqaruv raisi: "Biz SITA'ni sohadagi tajriba va ishonchli raqamlı mahsulotlari uchun tanladik. SITA Mission Watch aviadispetcherlarimiz uchun parvozlarni rejalashtirish va xavfsizlikni ta'minlash, shu jumladan ob-havo o'zgarishlari tufayli yuzaga keladigan qiyinchiliklarga moslashish qobiliyatini ta'minlash uchun asosiy operatsion yechim bo'ladi".*

*“Ob-havo sharoiti tufayli parvoz belgilangan vaqtida bajarmasligi kabi turli kamchiliklar aviakompaniyalarga yoqilg‘i, havo kemalarni ta’mirlash, yo’lovchilarga kompensatsiya to’lash xarajatlari bo'yicha katta yo'qotishlar keltirmoqda. Bizning texnologik yechimlarimiz aviakompaniyalarga inqirozlarni oldindan ko'ra bilishda yordam berish, shu bilan birga havo kemasi xavfsizligi va ekspluatatsiya samaradorligini oshirish uchun mo'ljallangan” – deya ta'kidlab o'tdi Yann Kabare, SITA FOR AIRCRAFT Bosh direktori.*

### **SITA kompaniyasi haqida**

SITA – havo transporti sohasi uchun axborot texnologiyalari provayderi bo'lib, aviakompaniyalar, aeroportlar, havo kemalari va hukumatlar uchun yechimlar taklif etadi. Uning texnologiyalari yanada qulay, xavfsizroq va ekologik yaxshi sayohatni ta'minlaydi.

SITA 2500 ga yaqin mijozlarga ega hamda uning yechimlari 1000 dan ortiq aeroportlarning ish samaradorligini oshiradi va 17 000 ta avialaynerdan iborat global aviatsiya ekotizimiga ulanish imkonini beradi. SITA shuningdek, 70 dan ortiq hukumatlarga chegara xavfsizligini uzlusiz sayohat bilan muvozanatlashda yordam beradigan texnologik yechimlarni taqdim etadi. Uning aloqa tarmog'i dunyoning barcha burchaklarini bog'laydi va havo transporti hamjamaliyatining kommunikatsiyalarining 60 % tashkil qiladi.

2021-yilda SITA uglerod neytral dasturlari bo'yicha dunyodagi yetakchi standart bo'lgan CarbonNeutral Protocol bo'yicha CarbonNeutral® sertifikatiga ega bo'ldi. Biz BMT tomonidan e'tirof etilgan Planet+ dasturi doirasida barcha operatsiyalarimiz bo'ylab issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirmoqdamiz va aviatsiya sanoatiga uglerod gazini kamaytirish bo'yicha maqsadlariga erishishga, jumladan, yoqilg'i sarfini kamaytirish va ish samaradorligini oshirishga yordam beradigan yechimlar ishlab chiqmoqdamiz. 2022-yilda biz Net-Zero Standard tashabbusiga muvofiq emissiyalarini ilmiy asoslangan qisqartirish maqsadlarini belgilash rejamizni e'lon qildik.

SITA 100% sanoatga tegishli va uning ehtiyojlaridan kelib chiqib faoliyat yuritadi. U 200 dan ortiq mamlakat va hududlarda xizmatlar ko'rsatuvchi dunyodagi eng ko'p millatli kompaniyalardan biri hisoblanadi.

Qo'shimcha ma'lumot <http://www.sita.aero> veb-saytida mavjud.

### **SITA O'zbekistonda**

SITA O'zbekiston bozorida 1992-yildan beri Uzbekistan Airways bilan uzoq muddatli hamkorlikni yo'lga qo'yib, o'z ishtirokini va milliy aviatsiya sanoati vakillari bilan hamkorlikni doimiy ravishda kengaytirib kelmoqda.

SITA'ning mintaqadagi vazifasi yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sohasida IT-yechimlarni taqdim etish, bagajni ishlab chiqish va parvoz operatsiyalari bajaruvchi aviakompaniya sanoatining yuqori darajadagi raqamli transformatsiyasini ta'minlashdan iborat.

SITA texnologiyalaridan respublikaning barcha yirik aviakompaniyalari – Uzbekistan Airways, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida yaqinda tashkil etilgan aviakompaniyalar, xususan: Qanot Sharq, Centrum Air (My Freighter), Panorama Airlines, Sam Air foydalanadi. Bu parvoz paytida ham yuqori sifatli aloqani ta'minlash bo'yicha yechimlar, shuningdek, aviakompaniyaning ishlab chiqarish faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha innovatsion ishlamalar – real vaqt rejimida samolyotlarni kuzatishdan tortib parvozning barcha bosqichlarida yoqilg'i samaradorligini hamda mobil aloqani ta'minlashgacha degani.

Mamlakat ichida SITA Uzbekistan Airports, Air Marakanda va O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi kabi boshqa mijozlar bilan ham hamkorlik qiladi.